

RABINDRANAT THAKUR – HIKOYA USTASI (RABINDRANATH THAKURE - MASTER OF STORIES)

Nizomova Ismigul

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
4-kurs talabasi
ismigulgull88@mail.com

Annotatsiya: Adabiyotning turli janrlarida ijod qilgan hindistonlik buyuk shoir, yozuvchi, bastakor va taniqli jamoat arbobi Robindranat Thakur shaxsiyati bizga adib asarlaridan ma’lum va mashhur. Ushbu maqolada ijodkorning adabiyot tarixida tutgan o‘rni, asarlarining inson ma’naviyatiga ta’siri haqida fikr yuritiladi. Adib qalamiga mansub “Shubha” hikoyasi tahlilga olinadi va fikr-mulohazalar bildiriladi.

Kalit so‘zlar: Robindranat Thakur, “Shubha”, hikoyasi, lirizm, falsafiylik, psixologik tahlil.

Аннотация: Общеизвестна и популярна личность великого индийского поэта, писателя, композитора и общественного деятеля Робинраната Тхакура, писавшего в различных жанрах литературы. В данной статье рассматривается роль художника в истории литературы, как мастер рассказов и влияние его произведений на духовность человека. Проанализирован и сделан комментарий по рассказу «Шубха».

Ключевые слова: Робинранат Тхакур, Сомнение, рассказ, лиризм, философия, психологический анализ.

Annotation: The personality of the great Indian poet, writer, composer and public figure Robindranath Thakur, who wrote in various genres of literature, is well-known and popular. This article discusses the role of the artist in the history of literature, as a master of stories and the influence of his works on human spirituality. Analyzed and commented on the story "Shubha".

Key words: Robindranath Thakur, Doubt, storytelling, lyricism, philosophy, psychological analysis.

Kirish. Adabiyot tarixida R.Thakur ijodi o‘zining salmoqligi va o‘zida milliy-istiqlol g‘oyalarini ifodalashi bilan qadrli va qimmatlidir. Adib ijodining aksariyat qismining xarakterli jihatni ham aynan Hind va Bengal xalqlarining ingliz mustamlakalariga qarshi olib brogan milliy-ozodlik kurashi tasvirlariga bag‘ishlanganligi bilan izohlanadi.

Hind adabiyotini o‘zining romanlari, she’rlari bilan bezab turgan adibning asarlari jahoning ko‘plab tillariga tarjima qilingan. Maxatma Gandhi, Javoharla’l Neru, Romen Rollanlarning Thakur ijodi haqidagi fikrlari ko‘pchilikka tarixdan ma’lum.

Mavzu tadqiqi. Robindranath Thokur asarlari tahliliga oid dastlabki tadqiqotlar XX asr boshlarida hassos ijodkorlar Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat tomonidan amalga oshirilgan. Keyingi tadqiqotlar esa To‘xtasin Jalolov faoliyati bilan chambarchas bog‘liq.

R. Thakur yoshligidan Yevropa adabiyoti durdonlarini sevib o‘qiydi. Shelli, Braun, Kitsa, Hyote, Dante, Petrarka asarlarini o‘qib, so‘z boyligi yuksalib boradi va yillar davomida o‘zining ilmiy merosini yaratadi. Ushbu ilmiy merosi bilan jahon adabiyoti ixlosmandlari qalbida abadiy muhrlanib qoladi. U yuzdan ortiq hikoya, 50 ta she’r va poemalar to‘plami, 12

ta roman va qissalar chop ettirgan, Shuningdek, ko‘plab maqolalar, falsafiy asarlar yozgan bo‘lib, bu asarlari ichida til va adabiyotga oid ilmiy maqolalari va maktab darsliklari alohida ahamiyat kasb etadi. [1. https://ru.wikipedia.org/wiki/Tagor,_Рабиндранат].

Thokur ijodida hikoyalar alohida ahamiyatga ega. Bu hikoyalar oddiy odamlarning g‘amkulftalariga hamdardlik, xayrixohlik, ingliz mustamlakalariga, katta mansabdorlarga, politsiyaga, zamindorlarga, zolimlarga va boshqa turli-tuman tama’gar va manfaatparastlarga, munofiqlik va zo‘ravonlikka qarshi nafrat hislari bilan to‘lgandir. Thakur insonni ruhan ezadigan foydaparastlik, nokaslik hirsini qoralaydi. Shu bilan birga Thokur o‘rtal asr feodal qoldiqlarini, ayniqsa, toifaviy bo‘linishlarni qattiq va rahmsiz masxaralaydi. Brahman-kohinlarni, tarkidunyochilik va soxta taqvodorliklarni fosh etadi. Bu xurofotlar iskanjasida hammadan ko‘proq azob tortgan hind xotin-qizlari taqdiriga Thokur alohida e’tibor beradi. Qismati kemtik insonlarni o‘z asarlarining ijobjiy qahramoni qilib oladi, ularni sofdiril, oliyanob, insonparvar va o‘z burchiga sodiq qilib tasvir etadi. Masalan, 1891-yilda yozilgan “Hisobkitob” hikoyasida Thokur mustamlaka Hindistonda pul hukmronligini mahorat bilan ochib beradi. Adib ushbu hikoyada qalin baravariga erga berilgan yosh qizning fojiali taqdirini hikoya qiladi.[2. R. Tagor, Hikoyalar, 45-bet].

Halol, to‘g‘ri odamning muttaham va tama’gurlarga qarshi kurashi “Beaql Ramkanai” hikoyasida juda yorqin ifoda etilgan. “Meros” hikoyasining bosh qahramoni- xasis chol kamoli baxilligidan aqldan ozib, mol-dunyomni abadiy asrasin deb sevimli nabirasini tiriklay oltinlari bilan ko‘mib tashlaydi. “Yechilgan topishmoq” hikoyasi zamindorlarning dehqonlarni shafqatsiz xo‘rlashini ko‘rsatib beradi.

Adibning boshqa ko‘plab hikoyalarida xotin-qizlarning dilbar obrazlarini ko‘ramiz. Yozuvchi bularni hamisha muhabbat va zo‘r xayrixohlik bilan tasvir etib, o‘quvchining diqqatini hind jamiyatida xotin-qizlar ahvoliga, tul xotinlarning fojiali taqdiriga jalb etadi.

“Daftarcha”, “Shubha”, “Sudya”, “Opa” va boshqa hikoyalarda Thokur salaflarning, yani XX asr birinchi yarmida xotin-qizlarni feodal sarqitlaridan ozod etish uchun kurashgan bengaliyalik ma’rifatparvarlarning an’analarini davom ettiradi.

Thokur hikoyalari feodalizm va mustamlakachilikka qarshi qaratilgani shubhasizdir. Garchi bu hikoyalar ro‘y-rost kurashga chaqirmsa ham, ularning obyektiv mohiyati shunga targ‘ib qilishdir.

Maftunkor lirizmi va nozik psixologik tahlili bilan o‘quvchilarni rom qiluvchi Thakur hikoyalari milliy adabiyotda realizmni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Adibning nasriy asarlarida erk, ozodlik, ma’rifat g‘oyalari tarannum etiladi. Uning qahramonlari o‘zligini tanigan, o‘z millati uchun qayg‘uradigan, irodasi mustahkam, aqli teran shaxslardir. Adib vatanini hur, xalqini ozod ko‘rishni istaydi. Lekin buning uchun hind xalqi g‘aflatdan, jaholatdan, loqaydlikdan qutulishi va mustaqillik uchun kurashishi shart, deb hisoblaydi. R. Thakur dramaturgiyasida romantik ruhdagi pyesalar, inson qusurlarini fosh qiluvchi komedyalar ustun turadi. Uning 1922-yilda yozilgan “Ozod bo‘lgan oqim” pyesasi milli-ozodlik harakatining yuksalishiga bag‘ishlanadi.

Adib qalamiga mansub “Shubha” hikoyasida insoniylik, ular o‘rtasidagi o‘zaro mehrmuhabbat, inson qadr-qiymati haqida so‘z boradi. Mo‘jaz hikoya orqali yozuvchi ijtimoiy hayotning nozik jihatlarini ko‘rsatadi. Bag‘ritosh, insoniy sifatlardan mahrum, nafs bandalari hamda ezgu tuyg‘ular egasi, pokiza qalbli insonlar o‘rtasidagi ixtilof va ziddiyatlar mahorat bilan tasvirlanadi.

Hind adabiyoti tarixida hikoya janriga asos solgan ijodkor “Shubha” hikoyasi orqali hayotida kemtik bor shaxslarning fojiasini mahorat bilan yoritib beradi. Jamiyat odamlarining bunday shaxslarga munosabatini keskin qoralaydi va hikoyada ularning asl mavqesini ko‘rsatib beradi. Hikoya qahramoni Shubhani odamlar jamoasidan ayirib, hayvonot olamiga oshno qiladi. Endi hikoya matniga e’tibor bersak: “Shubhaning do’stlari ham bor. Ammo ular odamlar emas, og‘ilxonadagi Sharbashi va Panguli laqabli sigirlar, echki va mushuklar edi.

Ular soqov qiz kabi gapira olmasalar-da, uning erkalashlarini so‘zdan yaxshiroq tushunardilar, yuzlarini uning yuzlariga surkashar, shoxlarini Shubhaning qo‘llariga asta surkab, beso‘naqay harakatlari bilan bilan tasalli berishga urinar edilar” [3.326-b]. Demak, ushbu parchadan xulosa qilsak bo‘ladiki, adib jamiyatdagi ba’zi insonlarni hayvondan-da past, jaholat qariga tushgan va bu botqog‘dan chiqish yo‘llarini izlamaydigan ma’naviyatsiz odamlar sifatida ko‘ryapti.

Garchi Shubha gapira olmasa-da, yozuvchi uni: “kelishgan, ko‘zlar qaro, shahlo, kipriklari uzun, lablari qiz qalbida tug“yon urgan hislarni aks ettirib gul bargiday titrab turardi”- deya tasvirlaydi. Shu o‘rinda “Islom” dinining muqaddas kitobi “Qur’oni karim” ning “Haj surasi” 46-oyatiga e’tiborimizni qaratsak:

فَإِنَّهَا لَا تَعْمَلُ الْأَبْصَارُ وَلَكِنْ تَعْمَلُ الْقُلُوبُ الَّتِي فِي الصُّورِ

Oyatning tarjimasi: Axir yer yuzida aylanib yurmaydilarmi, toki qalblar ila aql yuritsalar, quloqlari ila eshitsalar. Zero ko‘zlar ko‘r bo‘lmas, siynalardagi qalblar ko‘r bo‘lur [4.72-b].

Thakur hikoyada jamiyat va uning a’zolarini haqiqatni anglamaydigan, to‘rt muchasi sog‘ bo‘lgan-u, siynadagi qalblari nosog‘lom insonlar sifatida tasvirlaydi.

Adib “Shubha” hikoyasi qahramonlari orqali jamiyatdagi shaxslarning o‘zaro munosabati, bir-birini tushunishdagi ziddiyatlarni mohirona tasvirlaydi. Odamlarda zabon bor, lekin ularda insoniylik xislatlarini, ezgu va samimi tuyg‘ularni ifodalab bera oladigan qalb yo‘qligini bir karra eslatadi. Hikoya bosh qahramoni Shubha garchi tabiatan soqov bo‘lib hayot kechirayotgan bo‘lsa-da, uning qora ko‘zları so‘zga muhtoj emas edi: ular xuddi yurakning o‘zini ifoda etadilar: uning tuyg‘ulari goh alanglanib, goh zaif miltillaydi, goh yolqinlanib ketib, goh horg‘in so‘nadi, goh botayotgan oydek osuda boqib, goh osmon gumbazini yoritib o‘tgan chaqmoqdek porlaydi. Kimki soqov bo‘lib tug‘ilsa, unda til vazifasini titroq lablar bilan ko‘z bajararkan (3.332-b)

Adib hikoyada Hindistondagi ijtimoiy turmushning o‘ziga xos tartiblarilari ham yoritib beradi. Qizlarni sep-sarpo bilan uzatish, kelinga mos kuyov topish kabi. Shubhaning turmushdagi hayoti nikohni bekor qilish va erining ikkinchi daf‘a ancha e’tibor bilan faqat ko‘zini emas, quloqlarini ham ishga solib, boshqa- tili bor qizga uylanishi bilan yakunlanadi va bu o‘qirmanni qayg‘uga soladi. Shubhaning keyingi taqdiri ma’lum emas. Hikoya qahramoni qalbida tutib bo‘lmas, g‘ayri insoniy bir faryod bilan yakka qoldiriladi. Hikoyani sinchkovlik bilan o‘qigan kitobxonda bir-biriga zid keladigan fikrlar paydo bo‘lishi tabiiy. Shubhaning ota-onasi qizi garchi soqov bo‘lsa-da uni yaxshi ko‘rishi, ayniqsa, otasining hamma qizlaridan ko‘ra kichigi Shubhani ko‘proq suyushi aytildi. Ona farzandi zabonsizligidan nomus qilsa, endi o‘zingiz xulosa qilavering.

Xulosa. Thakurning ushbu hikoyasi jamiyatdagi bad’fel odamlar, ularning niyatlar qurbaniga aylanayotgan, hayotidagi bir kemtik tufayli butun umrini baxtsizlikda o‘tkazishga mahkum qilingan pokiza qalb sohibasining kechinmalarini, uning fojiasini siz-u bizga anglatadi. Inson haq-huquqlarini toptagan, ularni bir kasalligi yoki boshqa ayb-u nuqsoni sababli odamlar orasidan yakkaltish qattiq tanqid qilinadi. Abdulla Qahhor ta’biri bilan aytganda: “Odamning chiqiti bo‘lmaydi” (3.334-b).

Thakur qalamiga mansub qaysi bir hikoyani o‘qimaylik, har birida insoniylik, mehr-shavqat, ezungulik, hamiyatlilik kabi ulug‘ fazilatlarga da’vat borligini payqaymiz.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://ru.wikipedia.org/wiki/Тарор,_Рабинранат.
2. Rabindranat Thokur. Hikoyalar. T. “Sharq”, 2006. – 272 b.
3. Olimov S. Adabiyot 8-sinf uchun darslik. / S. Olimov, S. Ahmedov, R. Qo‘chqorov. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2019, - 352 b.
4. Аловуддин Мансур. Куръони Азимнинг муҳтасар тафсири, 2 китоб, Т.: “Movarounnahr”. 2019. - 992 б.